

**№ 0100-111-250014 – sonli**  
**GAROVGA QO'YILAYOTGAN KO'CHMAS MULKNI SUG'URTALASH**  
**BOSH SHARTNOMASI**

Toshkent shahri

“15”-08 2025-yil

O'zbekiston Respublikasi sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan 26.09.2023 yilda berilgan №135840 – sonli litsenziya asosida faoliyat yurituvchi “SEMURG INSURANCE” AJ, keyingi o'rirlarda “Sug'urtalovchi” deb nomlanuvchi, Ustav asosida faoliyat yurituvchi Bosh direktor R.K.Kadirov bir tomonidan shuningdek, AT “ALOQABANK” keyingi o'rirlarda “Naf oluvchi” deb nomlanuvchi, Ustav asosida ish yurituvchi Boshqaruv Raisi K.N.Irisbekova ikkinchi tomondan birgalikda “Tomonlar”, alohida hollarda “Tomon” deb yuritiladi, ushbu Garovga qo'yilayotgan mulkni sug'urtalash Bosh shartnomasini (keyingi o'rirlarda “Shartnoma” deb yuritiladi) quyidagi shartlar bo'yicha tuzdilar:

### 1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Shartnomada nazarda tutilgan shartlar va/yoki qo'shimcha kelishilgan shartlar, ushbu Sug'urta shartnomasining ajralmas qismi bo'lган istisnolar va ilovalarga muvofiq sug'urta tovonini/ta'minotini amalga oshirish majburiyatini olgan holda garovga qo'yilayotgan mol-mulkni Qarz oluvchiga mulk huquqi, egalik huquqi, foydalanish, tasarruf etish (mulkni sug'urtalash) bo'yicha yo'qotilish yoki shikastlanish tavakkalchiligidan sug'urtalash mazkur Shartnomaning predmeti bo'lib, Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini mazkur Shartnomada belgilangan miqdor va shartlarda to'laganda, Sug'urtalovchi Shartnomada keltirilgan sug'urta hodisasi ro'y berganda Sug'urta qildiruvchiga, Naf oluvchiga sug'urta tovonini mazkur Shartnomada belgilangan tartibda va hajmda qoplashni o'z zimmasiga oladi.

1.2. Shartnomada ko'rsatilgan mulkka (sug'urta predmetiga) egalik qilish, undan foydalanish, uni tasarruf etish bilan bog'liq bo'lган Naf oluvchining ushbu Sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganda uning yo'qotilishi (nobud bo'lishi) yoki shikastlanishi oqibatida Naf oluvchining mulkiy manfaatlari mazkur Shartnomaning sug'urta ob'ekti hisoblanadi.

1.3. Sug'urta qildiruvchi mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq ishlab chiqilgan ommaviy oferta shaklidagi shartnoma (1-ilova) bilan tanishib rozilik bildirganligini asoslovchi ariza-anketani (2-ilova) to'ldirish orqali shartnoma tuzadi.

### 2. ASOSIY TUSHUNCHALAR

Shartnomada qo'llanilgan asosiy tushunchalar quyidagi ma'nolarga ega:

**Sug'urta qildiruvchi** – mulkini garovga qo'ygan shaxs

**Sug'urta qiymati** – sug'urta Shartnomasini tuzish paytida Tomonlarning kelishuviga ko'ra aniqlanadigan, sug'urta manfaati bilan bog'lanadigan mol-mulk qiymati (FK 935).

**Sug'urta summasi** – Ariza-anketada ko'rsatilgan, sug'urta ob'ekti sug'urtalangan, sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchi javobgarligi hajmining chegarasini o'zida aks ettiruvchi pul mablag'lari miqdori.

**Sug'urta mukofoti** (sug'urta badali/to'lovi) – Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Sug'urtalovchiga ushbu Ariza-anketada belgilangan tartib va muddatda sug'urta uchun to'lashi shart bo'lган to'lov. Sug'urta mukofotini bosqichma-bosqich, navbatdagi sug'urta badallari ko'rinishida to'lanishi nazarda tutilishi mumkin.

**Sug'urta tovoni** – sug'urta hodisasi sodir bo'lganda, sug'urtalangan mol-mulkka yetkazilgan zararni qoplash uchun sug'urta puli chegarasida to'lanadigan pul mablag'i.

**Sug'urta polisi** – Sug'urtalovchining sug'urta Shartnomasi bo'yicha majburiyatları kuchga kirganligini tasdiqlovchi, Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchiga ushbu sug'urta Shartnomasining ajralmas qismi hisoblangan Ariza anketada belgilangan tartib va muddatlarda sug'urta mukofoti to'langanidan keyin beriladigan hujjat.

**Sug'urta (hududi) joyi** – Sug'urtalovchi sug'urta himoyasini taqdim etadigan, sug'urtalangan mol-mulk joylashgan o'rni. Sug'urta joyi O'zbekiston Respublikasi hududi

**Franshiza** — sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan, sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydigan sug'urta qildiruvchi zararlarining bir qismi. Franshiza ham sug'urta summasidan foizlar ko'rinishida, ham aniq summada o'rnatilishi, hamda shartli va shartsiz bo'lishi mumkin. Shartli franshiza o'rnatilganda, sug'urtalovchi franshiza miqdoridan ko'p bo'Imagan zarar uchun javobgarlikdan ozod bo'ladi. Shartsiz franshiza o'rnatilganda esa, sug'urtalovchining javobgarligi zarardan franshiza miqdorini chegirib qolgan holda aniqlanadi.

**Yong'in** – o't oldirish va ushlab turish uchun maxsus mo'ljallangan joylardan tashqariga ixtiyoriy ravishda tarqalish xususiyatiga ega olov.

**Olov** – bu ko'zga ko'rindigan diapazonda nurlanish va issiqlik energiyasining chiqishi bilan birga bo'lgan kuchli oksidlanish jarayoni.

**Yashin urishi** – mol-mulkdan mahrum bo'lish (nobud bo'lishi)ga olib keluvchi, unga yashinning to'g'ridan-to'g'ri tegishi (yashin – bulutlar o'tasidagi yoki bulut va yer o'tasidagi elektr razryadi). Yashinning issiq ta'siri va yashin oqibatida havo bosimi ta'siri ham sug'urta bilan qoplanadi.

**Zilzila** – yer qa'rida muntazam sodir bo'ladigan, yerning ustki qismi silkinishi va tebranishi bilan kuzatiladigan tabiy jarayonlar natijasi.

**Suv toshqini** – daryo, ko'l, dengiz sathining ko'tarilishi yoki damba, to'g'on buzilishi natijasida hududni sezilarli darajada suv bosishi.

**Ko'chki** – shamol yoki yerusti yoki yerosti suvlarining ta'sirida qirg'oq yonbag'irlarini yuvilishi va jinslarning og'irlik kuchi ta'sirida yoki zilzila natijasida tog' jinslarining qulashi.

**Yer siljishi** – dengizlar, ko'llar, daryolar, jarliklar yaqinida, chuqurliklarning, kanalarning tik qiyaliklari, shuningdek tog'larda o'z og'irlik kuchi ta'sirida yer massasining sekin siljishi.

**Kuchli shamol** – tezligi 15 m/sdan ortiq bo'lgan davomli va kuchli shamol;

**Dovul** – tezligi 30 m/s dan ortiq bo'lgan kuchli shamol. Shamol tezligi O'zbekiston Respublikasi Gidrometmarkazining hududiy muassasalari ma'lumotnomalari bilan tasdiqlanadi.

**Do'l urishi** – do'lning bevosita ta'siri oqibatida sug'urtalangan mol-mulkni har qanday yo'qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi.

**Jala** – 12 soat yoki undan kam vaqtida 30 mm yoki undan ortiq katta miqdorda yog'ingarchilik bo'lishi bilan kuzatilgan kuchli yomg'ir.

**Qalin qor yog'ishi** – bunday qor yog'ishi ushbu hudud uchun kamdan-kam (g'ayrioddiy) holat bo'lishi sharti bilan qisqa vaqt oralig'ida odatdagidan ko'p miqdorda – 12 soat va undan kam vaqtida 20 mm va undan ko'p qor yog'ishi.

**Suvdan zararlanish** – ichimlik suvi, oqava suvlar, isitish tizimlari (santexnika vositalari ham), yong'inni o'chirish va haroratni maromida saqlash tizimlaridan chiqqan suv yoki suyuqlikning sug'urtalangan mol-mulkka jismoniy ta'sir qilishi yoki Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchilarga tegishli bo'Imagan qo'shni joylardan suv kirishi.

**Yer usti transport vositalari bilan to'qnashishi** – sug'urtalangan mol-mulk har qanday yer usti transport vositasi bilan to'qnashishi natijasida yo'qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi.

**Uchuvchi vositalarning qulashi** – uchuvchi apparatlar, ularning qismlari yoki yuklari tushishi natijasida sug'urtalangan mol-mulkni har qanday bevosita yo'qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi.

**Ommaviy oferta shaklidagi ariza (ariza-anketa)** – Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan sug'urta ob'ekti, Kredit shartnomasi hamda Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lib, ushbu ma'lumotlar Sug'urtalovchi tomonidan qabul qilingandan va sug'urta mukofoti to'langandan so'ng aniq bir Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchiga beriladigan sug'urta polisining ajralmas qismi bo'lgan hujjat;

**JFODLTMVOQQTM** - jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qирғин qurqatishni moliyalashtirish;

**Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (Yagona tizim)** – manfaatdor vazirliliklar va idoralarning axborot tizimlari va markaziy ma'lumotlar bazalari, jismoniy va yuridik shaxslar markaziy ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyalashgan sug'urta bozori ma'lumotlarini hisobga olish va iste'molchilarga elektron sug'urta xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatini ta'minlovchi yagona tizim.

### **3. SUG'URTA HODISALARI**

3.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha Sug'urtalovchi Sug'urtalangan mulkka quyidagi tavakkalchiliklar bo'yicha sug'urta hodisasi yuz berishi natijasida sug'urta ob'ektlariga zarar yetkazilgan va bu fakt maxsus vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan taqdirda Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) va/yoki Naf oluvchiga zararni qoplab berish majburiyatini oladi:

3.1.1. **Yong'in:** olov ta'sirida, yashin urishi;

3.1.2. **Mexanik shikastlanish:** transport vositalarining kelib urilishi, uchuvchi apparatlar va ularning qismlarining kelib tushishi,

3.1.3. **Tabiiy ofatlar:** zilzila, o'pirilish, sel kelishi, kuchli shamol, dovul, bo'ron, jala, suv toshqini, shiddatli atmosferaviy yog'ingarchilik shuningdek, uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari.

3.2. Mazkur sug'urta shartnomasi nomuayyan muddatga tuzilgan.

3.3. Sug'urtalovchining javobgarligi sug'urta mukofoti Sug'urtalovchining hisobvarag'iga kelib tushgandan boshlanadi va sug'urta polisida ko'rsatilgan muddatda amal qiladi (Sug'urta mukofotini to'lash sharti Ariza-anketada ko'rsatiladi).

3.4. Kredit shartnomasi uzaytirilganda, sug'urtalash davri qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lash sharti bilan uzaytiriladi.

3.5. Mazkur Shartnomaga muvofiq quyidagi hollarda sug'urta hodisasi tan olinmaydi va Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashdan ozod qilinadi:

3.5.1. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi yoki Qarz oluvchi sug'urta hodisasi yuz bergenligi to'g'risidagi hujjatlarni 72 soat ichida Sug'urtalovchiga taqdim etmaganligi sababli qaror qabul qilishning iloji bo'limganda;

3.5.2. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi Sug'urtalovchini sug'urta hodisasining sabablari va holatlarini aniqlashda, shuningdek zarar miqdorini belgilashda ishtirok etishiga to'sqinlik qilganda;

3.5.3. ijara, tekinga foydalanish va qayta garovga qo'yishda sug'urtalovchining yozma roziligi olinmaganda.

3.6. Shartnoma doirasida sug'urtalangan transport vositasiga quyidagi sabablarga ko'ra to'liq yoki qisman yetkazilgan zarar qoplanmaydi:

3.6.1. harbiy bosqinchilik harakati, harbiy harakatlar yoki urushga o'xshash harakatlar (urush e'lon qilingan yoki e'lon qilinmaganligidan qat'i nazar), fuqarolar urushi;

3.6.2. qo'zg'olon, ommaviy tartibsizliklar, milliy xarakterdagi ish tashlashlar;

3.6.3. shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan sodir etilgan terrorchilik harakati;

3.6.4. sug'urtalangan mulkning bozor qiymatining yo'qotilishi.

3.7. Sug'urta Shartnoma/polisi, agar Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi xavf darajasining o'zgarishiga bevosita ta'sir qiluvchi holatlar o'zgarishi haqida o'z vaqtida xabar bermasa, Sug'urtalovchining talabi bilan bekor qilinishi mumkin. Agar sug'urta xavfining ortishiga sabab bo'luvchi holatlar allaqachon ortda qolgan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta Shartnoma/polisining bekor qilinishini talab qilishga haqli emas.

3.8. Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollarda sug'urta tovonini to'lashdan ozod qilinadi.

### **4. SUG'URTA PULI, SUG'URTA QIYMATI VA SUG'URTA MUKOFOTI**

4.1. Har bir Qarz oluvchi bo'yicha sug'urta summasi Bank tomonidan taqdim etilgan va muayyan Sug'urta polisining ajralmas qismi bo'lgan Anketa-arizada ko'rsatilgan ma'lumotlar va axborotlar asosida belgilanadi.

4.2. Shartnomada barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda amalga oshiriladi Sug'urta mukofoti Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi bilan kelishilgan miqdorda to'lanadi. Sug'urta mukofotining miqdori Sug'urta summasiga nisbatan yillik **0,1 foizdan kam 1 foizdan** ko'p belgilanishi mumkin emas.

4.3. Har bir alohida sug'urta polisi bo'yicha sug'urta summasi Kredit shartnomasi bo'yicha kredit summasining 125 (bir yuz yigirma besh) foizidan ko'p bo'limgan summani tashkil qiladi.

4.4. Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Ariza-anketani to'liq hajmda taqdim etgandan so'ng Sug'urta mukofoti 1 (bir) kun ichida to'lanishi kerak. Mablag'lar Sug'urtalovchining bank hisobvarag'iga to'liq kelib tushgan kun sug'urta mukofoti to'langan kun hisoblanadi. Sug'urta shartnomasi Yagona tizimda ro'yxatdan o'tkazilganidan va sug'urta mukofoti to'langanligi sug'urtalovchi tomonidan elektron tarzda tasdiqlanganidan so'ng sug'urta polisi Yagona tizim orqali avtomatik tarzda rasmiylashtiriladi.

## 5. SHARTNOMANING AMAL QILISHI VA BEKOR BO'LISHI

5.1. Ushbu Shartnoma nomuayyan muddatga tuzilgan. Shartnoma Tomonlarning maxsus vakolatga ega bo'lgan shaxslari imzolagan kundan kuchga kiradi. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha javobgarligi sug'urta mukofoti (yoki uning birinchi qismi) Sug'urtalovchi bank hisob raqamiga kelib tushgan sanadan keyingi kunning 00.00 soatidan e'tiboran kuchga kiradi.

5.2. Sug'urta Shartnoma/Polisi quyidagi hollarda tugatiladi:

5.2.1. Sug'urtalovchining javobgarlik muddati tugaganda;

5.2.2. Sug'urtalovchi tomonidan Shartnoma/Polis bo'yicha majburiyatlarning to'liq hajmda bajarilganda;

5.2.3. Shartnoma/Polis bekor qilingan (muddatidan ilgari tugatilgan) taqdirda:

a) Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)ning yozma arizasiga binoan;

b) Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) tomonidan Shartnoma/Polis bo'yicha majburiyatlarning bajarilmaganligi tufayli;

d) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

5.3. Sug'urta Shartnoma/Polisi Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi tomonidan muddatidan oldin bekor qilinganda va/yoki kredit shartnomasi bo'yicha barcha majburiyatlar Qarz oluvchi tomonidan muddatidan oldin bajarilgan taqdirda to'langan sug'urta mukofotining sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda qolgan mablag'ni hamda Sug'urtalovchi tomonidan qilingan xarajatlar uchun 50 (ellik) foizi chegirib qoligan holda Sug'urta qildiruvchiga qaytarib beriladi (agar sug'urta Polisining amal qilish vaqtida sug'urta tovoni to'lovi amalga oshirilgan bo'lsa, sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi).

5.4. Shartnoma/Polisni bekor qilish niyatları agar boshqa holatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) va Sug'urtalovchi bir-birlarini sug'urta Shartnoma/Polisi tugatilishi kutilayotgan sanadan kamida 15 (o'n besh) kalendar kuni avval yozma ravishda ogohlantirishlari shart. Sug'urta Shartnoma/Polisi bildirishnomada Shartnoma/Polisning amal qilishi tugatiladigan kun sifatida ko'rsatilgan kunning 00.00 soatidan e'tiboran tugatilgan hisoblanadi.

5.5. Sug'urta Ariza-anketa rasmiylashtirilgan/tuzilgan vaqtidan e'tiboran, O'zbekiston Respublikasining amaldagi fuqarolik qonunchiligidagi ko'zda tutilgan asoslarda hamda quyida keltirilgan hollarda haqiqiy emas, deb topilishi mumkin:

5.5.1. Ariza-anketada ko'rsatilgan sug'urta mukofoti belgilangan vaqtida to'lanmasa;

5.5.2. Ariza-anketa sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin rasmiylashtirilgan/tuzilgan bo'lsa;

5.5.3. Ariza-anketada keltirilgan sug'urtalangan mol-mulk jinoiy yo'l bilan topilgan, xatlangan, hibsda yoki sud qarori asosida musodara etilgan bo'lsa;

5.5.4. Sud Shartnoma/Polisni haqiqiy emas deb topish to'g'risida qaror qabul qilgan bo'lsa.

5.6. Sug'urta Shartnoma/Polisi haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa, sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)ga Sug'urtalovchi tomonidan ishni olib borishga ketgan xarajatlarni chegirib qolning holda qaytariladi, Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) va/yoki Naf oluvchiga to'langan sug'urta tovoni esa, bir oy muddat ichida Sug'urtalovchiga to'liq hajmda qaytarilishi lozim.

## 6. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### 6.1. Sug'urta qildiruvchining huquqlari:

6.1.1. sug'urta Shartnomasi shartlariga ko'ra, sug'urta summasi doirasida, haqiqiy yetkazilgan zarar miqdorida sug'urta tovonini olish;

6.1.2. qonuniy asoslarda, boshqa huquqiy aktlar yoki Shartnomada mulkning saqlanishidan manfaatdor uchinchi shaxs (Naf oluvchi) foydasiga sug'urta Shartnomasini tuzish;

6.1.3. Sug'urtalovchi bilan kelishgan holda sug'urta Shartnomasi shartlarini o'zgartirish;

6.1.4. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi, ushbu Shartnoma va sug'urta qilish Qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanish.

### 6.2. Sug'urta qildiruvchi/Garovga qo'yuvchining majburiyatları:

6.2.1. sug'urta Shartnomasi tuzilganda Sug'urtalovchiga xavf darajasini baholash va Sug'urtalovchi o'z zimmasiga javobgarlikni olishi uchun muhim bo'lgan shart-sharoitlarni tafsiflovchi barcha talab qilingan axborotni xabar qilish. Muhim deb, Sug'urtalovchining sug'urta Shartnomasini tuzish haqida yoki Shartnomaning mazmuni haqidagi qaroriga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlar hisoblanadi;

6.2.2. Sug'urtalovchiga sug'urta ob'ektiga taalluqli barcha tuzilgan yoki tuzilayotgan sug'urta shartnomalari haqida xabar qilish;

6.2.3. sug'urta mukofotini Shartnomada belgilangan miqdorda va tartiblarda to'lash;

6.2.4. zararning kelib chiqishi va xavf darajasining ortishining oldini olish uchun barcha maqbul ehtiyyot choralarini qo'llash;

6.2.5. sug'urtalangan ob'ektni ekspluatatsiya qilish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha me'yoriy hujjatlar va Yo'riqnomalar talablariga rioxal etish, shuningdek ushbu ob'ektdan faqatgina to'g'ridan-to'g'ri belgilangan maqsadda foydalanish;

6.2.6. Sug'urtalovchiga xavf darajasining o'zgarishini keltirib chiqaruvchi barcha holatlari haqida xabar berish;

6.2.7. sug'urta shartlari o'zgarganda uch kun muddat ichida Sug'urtalovchiga sug'urta Shartnomasini bekor qilish yoki qayta rasmiylashtirish haqida yozma ravishda xabar berish;

6.2.8. Sug'urta shartnomasining amal qilish davrida Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi/Naf oluvchi shartnoma tuzilayotganda sug'urtalovchiga ma'lum qilingan holatlarda yuz bergen, o'ziga ma'lum bo'lgan muhim o'zgarishlar to'g'risida, agar bu o'zgarishlar sug'urta xavfi ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, Sug'urtalovchiga darhol xabar qilishi shart. Sug'urta Shartnomasi (Polisi)da va Sug'urta qildiruvchiga berilgan Ommaviy ofertada ko'rsatilgan o'zgarishlar muhim deb hisoblanadi.

6.2.9. o'g'irlangan (yo'qolgan) sug'urtalangan mulk topilsa va Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)ga qaytarilsa yoki Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)ga o'g'irlangan (yo'qolgan) mulkning turgan joyi ma'lum bo'lsa, bu haqda zudlik bilan Sug'urtalovchiga xabar berish;

6.2.10. Sug'urtalovchi bilan oldindan kelishmasdan turib, sug'urtalangan mulkni ta'mirlash-qayta tiklash ishlarni amalga oshirmaslik;

6.2.11. sug'urta ob'ektiga nisbatan tergov yoki sud ishlari haqida zudlik bilan Sug'urtalovchiga yozma ravishda xabar berish;

6.2.12. mazkur Shartnomaning amal qilish davrida Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) mazkur Shartnoma tuzilayotganda Sug'urtalovchiga ma'lum qilingan holatlarda yuz bergen,

o'ziga ma'lum bo'lgan muhim o'zgarishlar to'g'risida, agar bu o'zgarishlar sug'urta xavfi ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, Sug'urtalovchiga darhol xabar qilishi.

Quyidagi o'zgarishlar muhim deb hisoblanadi: sug'urta ob'ektining joylashgan joyi (sug'urta qilish joy), faoliyat turi, moddiy – texnik boyliklar va xom ashyolarni saqlash sharoitlari, texnik jarayonlarning o'zgarishi, bino va inshootlarning konstruktiv xususiyatlarini o'zgarishi, yong'in va xavfsizlik signalizatsiyasini o'zgartirish, transformatorlar himoyasini o'zgartirish;

6.2.13. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi, ushbu Sharhnomasi va sug'urta qilish Qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarini bajarish.

### **6.3. Sug'urta qildiruvchi/garovga qo'yuvchining sug'urta hodisasi yuz bergandagi majburiyatlar:**

6.3.1. zararni kamaytirish va sug'urtalangan ob'ektni saqlab qolish uchun barcha amalga oshirilishi mumkin bo'lgan, shu jumladan Sug'urtalovchi tomonidan tavsiya etilgan choralarни ko'rish;

6.3.2. zarar aniqlangan daqiqadan boshlab, bu haqda zudlik bilan maxsus vakolatlari organlarga ma'lum qilish va 72 saat ichida (bayram kunlarini hisobga olmagan holda) har qanday maqbul yo'l bilan (telefon orqali) Sug'urtalovchiga xabar berish;

6.3.3. xabar bergen kundan boshlab, 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmagan holda zarar aniqlanganligi haqida yozma arizani (Sug'urtalovchi tomonidan belgilangan shakldagi) va 30 (o'ttiz) kalender kuni ichida Sug'urtalovchi tomonidan talab qilingan hamda sug'urta Sharhnomasi shartlariga ko'ra faktni tasdiqlash, zarar sababi va miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni taqdim etish;

6.3.4. Sug'urtalovchiga shikastlangan sug'urta ob'ektni ko'zdan kechirish yoki tekshirish, zarar sababi va miqdorini aniqlash uchun tergov ishlarini olib borishga imkon yaratib berish;

6.3.5. Sug'urtalovchining talabiga ko'ra sug'urtalangan ob'ektning nobud bo'lishi yoki shikastlanishi sababi va zarar miqdorini mulohaza qilish uchun zaruriy barcha ma'lumotlarni yozma ravishda taqdim etish;

6.3.6. Sug'urtalovchiga shikastlangan, nobud bo'lgan yoki yo'qolgan sug'urta ob'ektlarining ro'yxati (tavsifi)ni berish. Bu ro'yxat (tavsif) Sug'urtalovchi bilan kelishilgan muddatda, lekin har qanday holatda ham sug'urta hodisasi yuz bergen kundan boshlab bir oydan kechiktirmagan holda taqdim etilishi lozim. Tavsiflar shikastlangan sug'urta ob'ektlarining sug'urta hodisasi yuz bergen kundagi qiymati (narxi)ni ko'rsatgan holda tuziladi;

6.3.7. shikastlangan sug'urta ob'ektlarini sug'urta hodisasidan keyin qanday ahvolda bo'lsa, shu ko'rinishda saqlab qolish. Zarar ko'rildigandagi holatni faqatgina, xavfsizlik va/yoki zarar miqdorini kamaytirish nuqtai nazarlaridan o'zgartirish mumkin;

6.3.8. sug'urta hodisasi ro'y berganda, sug'urta ob'ektni ta'mirlash va/yoki qayta tiklash (texnik ta'mirga olib kirish) uchun Sug'urtalovchining yozma roziliginini olishi shart;

6.3.9. Sug'urtalovchi tomonidan aybdor shaxslarga nisbatan talab qilish huquqining amalga oshirilishi uchun unga barcha hujjatlarni berish va choralarini ko'rish;

### **6.4. Sug'urtalovchining huquqlari:**

6.4.1. Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) tomonidan taqdim etilgan ma'lumotni va sug'urta ob'ektining berilgan tavsifga muvofiqligini, shuningdek Sharhnomasi shartlariga amal qilinishi (rioya qilinishi)ni nazorat qilish;

6.4.2. sug'urtalangan ob'ektning holati (ahvoli)ni tekshirish;

6.4.3. mustaqil ravishda sug'urta hodisasi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash;

6.4.4. Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) va/yoki Naf oluvchidan sug'urta hodisasi yuz bergenlik faktini yoki to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta tovoni miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan axborotni, shuningdek tijorat sirini tashkil etgan ma'lumotlarni talab qilish;

6.4.5. Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)dan sug'urta hodisasi yuz bergenlik

faktini yoki to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta tovoni miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan axborotni, shuningdek tijorat sirini tashkil etgan ma'lumotlarni talab qilish;

6.4.6. zarur bo'lganda, maxsus vakolatli organlarga sug'urta hodisasi yuz berganlik faktini va sabablarini tasdiqlovchi hujjatlarni va ma'lumotlarni taqdim etish haqida so'rovnama yuborish;

6.4.7. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi, ushbu Shartnomada va sug'urta qilish Qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanish.

#### **6.5. Sug'urtalovchining majburiyatları:**

6.5.1. imzolangan sug'urta Shartnomalari bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarning bajarilishini kafolatlash;

6.5.2. Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) va/yoki Naf oluvchi haqida va uning mulkiy holati haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, O'zRning amaldagi qonunchiligidagi ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno;

6.5.3. Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) va/yoki Naf oluvchidan sug'urta shartlarining o'zgarganligi haqidagi xabarini yoki bildirish xatini olgach, besh kunlik muddat ichida sug'urta Shartnomasiga o'zgartirishlar kiritish yoki Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) va/yoki Naf oluvchiga xabar qilgan holda uni bekor qilish;

6.5.4. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi, ushbu Shartnomada va sug'urta qilish Qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

#### **6.6. Sug'urtalovchining sug'urta hodisasi haqidagi xabarni olgandan so'ng yuzaga keladigan majburiyatları:**

6.6.1. zarar miqdori (summasi)ni aniqlash (o'z hisob-kitoblari yoki mustaqil ekspertiza xulosalari, ta'mirlash tashkilotlari yoki boshqa tashkilotlar hujjatlari asosida) va sug'urta tovoni summasini hisoblash;

6.6.2. sug'urta dalolatnomasini tuzish va yuz bergen voqealiga sug'urta hodisasi, deb tan olingan taqdirda, sug'urta tovonini to'lab berish. Sug'urta tovonini to'lash muddatlariga amal qilinmaganda sug'urta Shartnomasida belgilangan miqdorda jarima to'lash.

6.7. Sug'urtalovchi sug'urta qoplamasini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarorini Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)ga u sug'urta qoplamasini to'lashni so'rab murojaat etganidan keyin rad etish sabablarining asoslangan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan holda 15 (o'n besh) ish kunidan kechiktirmay xabar qiladi. Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)ning sug'urta qoplamasini to'lashni so'rab murojaat etgan kuni bo'lib, u tomonidan Sug'urtalovchining to'lov yoki rad etish to'g'risidagi qarorini qabul qilish uchun asos bo'lgan zarur hujjat taqdim etilgan kun hisoblanadi.

### **7. SUG'URTA DA'VOSINI KO'RIB CHIQISH VA SUG'URTA TOVONININI TO'LASH**

7.1. Sug'urta tovoni Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan Ariza-anketada belgilangan sug'urta mukofotini to'liq va o'z vaqtida to'lagandagina to'lab beriladi. Agar Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) sug'urta hodisasi sodir bo'lgunga qadar Ariza-anketada ko'rsatilgan sug'urta mukofotining faqatgina bir qismini to'lagan bo'lsa, u holda Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz bergen vaqtida sug'urta summasining miqdorini sug'urta mukofotining to'langan qismiga mutanosib ravishda cheklaydi.

7.2. Shartnomaga asosan sug'urtalovchi tomonidan sug'urta tovonini to'lashda franchiza qo'llanilmaydi.

7.3. Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)ning sug'urtalangan ob'ektga zarar yetkazilganligi haqidagi arizasi, Sug'urtalovchining vakillari tomonidan tuzilgan ko'zdan kechirish dalolatnomasi hamda vakolatli organlarning (Gidrometeorologik xizmat, DYN, FVV, IIV, tergov organlari, sud va boshqa maxsus vakolatli organlarning qarori) hujjatlari sug'urta qoplamasini to'lab berish uchun asos hisoblanadi.

Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Sug'urtalovchiga ariza bilan birgalikda zarar sababi va miqdorini tasdiqlovchi barcha zarur hujjatlarni taqdim etishi shart.

7.4. Har bir Tomon mustaqil ekspertizani, uni o'tkazish taklifini bildirgan Tomon hisobiga o'tkazilishini talab qilish huquqiga ega. Ekspertiza o'tkazilgandan so'ng sug'urta hodisasi hisoblanmaydigan hodisalar bo'yicha ekspertiza xarajatlari Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) tomonidan qoplanadi.

7.5. Zarar quyidagicha aniqlanadi:

7.5.1. mol-mulk nobud bo'lganda foydalanishga yaroqli qoldiq qismlar qiymatini chegirgan holda uning sug'urta summasi miqdorida;

7.5.2. mol-mulkka shikast yetganda – uni qayta tiklashga ketadigan xarajatlar miqdorida.

7.6. Qayta tiklashga ketadigan xarajatlar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

7.6.1. mulkni qayta tiklash uchun zarur materiallar va ehtiyoj qismlarga xarajatlar. Qayta tiklash xarajatlari qayta tiklash (ta'mirlash) jarayonida almashtirilayotgan materiallar va ehtiyoj qismlarning eskirishini hisobga olgan holda aniqlanadi, aynan: agar mulkning eskirishi 30 foizdan oshsa, u holda mulkni qayta tiklashga ketadigan xarajatlardan ta'mir jarayonida almashtirilgan alohida qismlar (detallar, elementlar va boshqalar)ning qoldiq qiymati chegirib tashlanadi;

7.6.2. qayta tiklash bo'yicha xizmat xarajatlari.

7.7. Quyidagilar qayta tiklashga ketadigan sarflarga kirmaydi:

7.7.1. sug'urtalangan ob'ektni o'zgartirish va/yoki yaxshilash bilan bog'liq xarajatlar;

7.7.2. vaqtinchalik (yordamchi) ta'mirlashga ketadigan xarajatlar.

7.8. Barcha sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari yig'indisi Sharhnomalar/Polisda belgilangan sug'urta summasidan oshib ketishi mumkin emas. Sug'urta tovoni to'langandan so'ng ushbu sug'urta ob'ekti bo'yicha belgilangan sug'urta summasi to'langan sug'urta tovoni miqdoriga kamaytiriladi.

Bunda, Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) Sug'urtalovchidan to'langan sug'urta tovoni summasiga va sug'urta Polisi amal qilishining qolgan muddatiga mutanosib ravishda qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lash to'g'risidagi xabarnomani olgan kundan bir hafta muddatda tegishli qo'shimcha to'loymi amalga oshirishi lozim.

7.9. Agar Polisga sug'urta summasi miqdori bo'yicha o'zgartirishlar kiritilgan bo'lsa, Sug'urtalovchi oxirgi o'zgarishlarni hisobga olgan holda zararni to'lab beradi.

7.10. Sug'urtalangan mol-mulk to'liq nobud bo'lganda topshirish-qabul qilish dalolatnomasi tuziladi va Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) mulkning qolgan qismlarini Sug'urtalovchi ixtiyoriga beradi.

7.11. Sug'urtalangan mol-mulkning o'g'irlanishi (yo'qolishi) yoki to'liq nobud bo'lishi, yohud uning qismlarini almashtirilishi bo'yicha sug'urta tovoni to'lab berilganda, Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi, Naf oluvchi) o'zining mulkka bo'lgan huquqlaridan Sug'urtalovchi foydasiga voz kechadi (Abandon). Bunda Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi, Naf oluvchi) mulk Sug'urtalovchining ixtiyoriga o'tganligini tasdiqllovchi barcha zaruriy hujjalarni topshirishi lozim.

7.12. Sug'urta tovoni sug'urta hodisasi fakti Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi, Naf oluvchi) tomonidan taqdim etilgan hujjalarni bilan tasdiqlanib, ular asosida sug'urta tovoni qiymati aniqlangach, sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi qarori tasdiqlangan kundan e'tiboran 5 (besh) kun ichida to'lanadi.

Sug'urta tovoni to'lovi naqdsiz pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Sug'urta tovonini to'lash kuni bo'lib, Sug'urta tovonini to'lash uchun Sug'urtalovchi hisob raqamidan pul mablag'lari yechib olingan kun hisoblanadi.

7.13. Agar Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi, Naf oluvchi)ga o'g'irlangan sug'urtalangan mulk qaytarilsa, u Sug'urtalovchiga olgan sug'urta tovonini qaytarishga majbur. Bunda agar mulk shikastlangan holda topilsa, u holda Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)ga yetkazilgan zarar to'lab beriladi.

Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi, Naf oluvchi) Sug'urtalovchiga to'langan sug'urta tovonini qaytarib berishdan bosh tortsa, u holda ushbu mulkka bo'lgan barcha

huquqlar Sug'urtalovchiga o'tadi.

7.14. Sug'urta Shartnoma/Polisi amal qilish davrida Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) zudlik bilan, 72 soatdan kechikmagan holda Sug'urtalovchiga sug'urta xavfi darajasining o'zgarishiga bevosita ta'sir qiluvchi barcha o'zgarishlar haqida xabar berishi lozim. Bu kabi o'zgarishlarga quyidagilar kiradi:

7.14.1. sug'urtalangan mol-mulkni ijara berish;

7.14.2. sug'urtalangan ob'ektga bo'lgan egalik huquqlarining o'zgarishi;

7.15. Sug'urta xavfining ortishiga olib keluvchi holatlar haqida ma'lumotga ega bo'lgan Sug'urtalovchi sug'urta Shartnoma/Polisi shartlarini o'zgartirilishini yoki Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) tomonidan xavfning ortganligiga teng ravishda qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lanishini talab qilishga haqli.

Agar Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) sug'urta Shartnoma/Polisining yangi shartlariga rozi bo'lmasa yoki qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lashdan bosh tortsa, Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligidagi ko'zda tutilgan tartibda sug'urta Shartnomasining bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

7.16. Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) tomonidan Sug'urtalovchiga sug'urta xavfi darajasining ortishi to'g'risidagi axborotni xabar qilish bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligidagi ko'zda tutilgan tartibda sug'urta Shartnoma/Polisining bekor qilinishini va zararlar to'lab berilishini talab qilishga haqli.

7.17. Sug'urta Shartnoma/Polisi, agar Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) xavf darajasining o'zgarishiga bevosita ta'sir qiluvchi holatlar o'zgarishi haqida o'z vaqtida xabar bermasa, Sug'urtalovchining talabi bilan bekor qilinishi mumkin. Agar sug'urta xavfi darajasining ortishini keltirib chiqaruvchi holatlar ortda qolgan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta Shartnoma/Polisining bekor qilinishini talab qilishga haqli emas.

7.18. Sug'urta xavfi darajasining ortganligi yoki yo'qligidan qat'iy nazar, Sug'urtalovchi sug'urta Shartnoma/Polisi amal qilish davrida sug'urtalangan ob'ektning ahvoli, ekspluatatsiya qilish sharoitlari va saqlanishini tekshirib turishga haqli.

## 8. SUBROGATSIYA

8.1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 957-moddasiga muvofiq sug'urtalangan mulkka mazkur Shartnomada nazarda tutilgan sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zarar Sug'urtalovchi to'liq yoki qisman sug'urta tovonini to'lagan bo'lsa, to'langan summa doirasida zarar yetkazgan aybdor shaxsga da'vo qilish huquqi Sug'urtalovchiga o'tadi, bunda Qarz oluvchi yoki qonunchilikda belgilangan tartibda sug'urtalangan mulkka egalik huquqi bor shaxslar aybdor hisoblangan hollar bundan mustasno.

8.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 957-moddasi talablari doirasida Sug'urtalovchining o'ziga berilgan da'vo huquqini amalga oshirishi uchun Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi va (yoki) qarz oluvchi Sug'urtalovchiga barcha zarur bo'lgan ma'lumotlarni hujjatlar va dalillarni topshirishlari shart.

8.3. Agar Qarz oluvchi yoki mulkka egalik qiluvchi shaxs Sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan talab qilish huquqididan voz kechsa yoki ularning aybi tufayli ushbu huquqdan foydalinish imkonsiz bo'lganda, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'liq yoki tegishli qismi doirasida to'lashdan ozod qilinadi va to'langan sug'urta tovonini qaytarilishini talab qilishga haqli.

## 9. KORRUPSIYA VA JFODLTVOQQTM GA QARSHI KURASHISH HAMDA BOSHQA SHARTLAR

9.1. Ushbu shartnoma bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini bajarayotganda, afillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari harakatlarga ta'sir qilishi yoki ushbu shaxslarning har qanday nomaqbtlar imtiyozlari yoki boshqa imtiyozlarni olish uchun to'lovlarini to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita biron bir pul mablag'lari yoki qiymatlarni to'lashga yo'l qo'ymaydilar.

9.2. Ushbu shartnoma bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini bajarayotganda, afillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari amalda qonunchilikda pora berish-olish, shuningdek, amaldagi qonunchilik va xalqaro huquq talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar, jinoiy yo'l bilan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha harakatlar qilmaydi.

9.3. Ushbu shartnoma taraflarning har biri boshqa tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishni rad etadi, jumladan pul mablag'lari, sovg'alar, bepul ishlarni (xizmatlarni) bajarish va boshqalar taqiqlanadi. Shu bilan birga, xodimni ma'lum bir qaramlikka olib kelishi va buning bajarilishini ta'minlash, xodim rag'batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatni amalga oshirishi ta'qiqlanadi.

9.4. Agar biron-bir tomon korrupsiyaga qarshi kurash shartlarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb bilsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma yoki og'zaki, shu jumladan, ishonch telefoni orqali xabardor qilish majburiyatini oladi.

9.5. Tomonlar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar tomonlar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga riosa etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

9.6. O'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

9.7. Sug'urta tovonini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tgan summaning 0,1 foizi miqdorida, lekin ushbu Shartnoma bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan summaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi. Penyalarni to'lash Sug'urtalovchini sug'urta tovonini to'lash majburiyatidan ozod etmaydi.

9.8. Sug'urtalovchiga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni to'lash muddatlariga riosa etilmagan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Sug'urtalovchining talabiga ko'ra, kechiktirilgan har bir kun uchun 0,1 foiz miqdorida qarz summasiga penya to'laydi, lekin to'lanadigan summaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda to'laydi.

9.9. Agar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasliklari bartaraf etib bo'imas holatlar (fors-major) tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi. Fors-major holatlari ta'sir qilgan tomon boshqa tomonni ushbu holatlarning yuzaga kelishi va mumkin bo'lgan davomiyligi to'g'risida darhol xabardor qilishi shart. Bunday holda, Tomonlar belgilangan tartibda mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilgan va bajarilmagan qismlari bo'yicha yakuniy to'lovni amalga oshiradilar.

9.10. Tomonlar fors-major holatlari davrida ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgar emaslar.

9.11. Fors-major holatlari qayidagilar kiradi: tabiiy hodisalar (zilzilalar, ko'chkilar, bo'ronlar, qurg'oqchilik va shartnomada ko'rsatilmagan boshqa tabiiy ofatlar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy harakatlar (harbiy harakatlar) natijasida yuzaga kelgan favqulodda, oldini olish mumkin bo'lmagan va kutilmagan holatlar; blokadalar, davlat tashkilotlari va davlatlar o'rtaсидаги cheklar va taqiqlovchi choralar, shuningdek hukumat qarorlari va boshqalar), agar bu holatlar Shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir qilgan bo'lsa).

9.12. Fors-major holatlari yuzaga kelganda, tomonlarning majburiyatlarini bajarish muddati fors-major holatlari davom etayotgan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

9.13. Ushbu Shartnoma shartlariga o'zgartirishlar kiritish tomonlarning kelishuvi bilan amalga oshiriladi. Ushbu Shartnoma shartlarini o'zgartirish to'g'risidagi kelishuv yozma ravishda tuziladi.

9.14. Ushbu shartnoma shartlari o'zgargan taqdirda, majburiyatlar ushbu shartnomani o'zgartirish to'g'risidagi yozma shartnomada ko'rsatilgan kundan boshlab o'zgartirilgan deb hisoblanadi.

9.15. Ushbu shartnoma bo'yicha huquq va majburiatlarni uchinchi shaxslarga

topshirishga tomonlarning yozma rozilgisiz yo'l qo'yilmaydi.

9.16. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan barcha holatlarda O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, "Sug'urta faoliyati to'g'risida", "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunlar va O'zbekiston Respublikasida amaldagi boshqa qonun hujjatlariga amal qiladilar.

9.17. Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi va Naf oluvchi maxfiylik uchun javobgardir va ushbu shartnoma, ilova va ushbu shartnoma bilan bog'liq boshqa hujjatlarning mazmunini tegishli tomonning yozma ruxsatisiz uchinchi tomonga oshkor qilmaydi.

9.18. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokara yo'li bilan, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa sud tartibida hal qilinadi.

9.19. Shartnoma tomonlari, shuningdek har bir tomonning vakillari yoki xodimlari ushbu shartnomaga tegishli bo'lgan firma yoki maxfiy ma'lumotlarni har bir tomonning oldindan yozma rozilgisiz oshkor qilmaydi.

9.20. Mazkur Bosh shartnoma 2 (ikki) nusxada tuzilgan bo'lib, ular Sug'urtalovchida va Naf oluvchida bir nusxada saqlanadi va bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi hamda 2025-yil 15.08 sanadan kuchga kiradi.

## 10. TOMONLARNING REKVIZITLARI VA IMZOLARI

**SUG'URTALOVCHI:**  
“SEMURG INSURANCE” AJ

Manzil: O'zbekiston Respublikasi,  
Toshkent sh., S.Azimov ko'ch., 50  
tel: +71-205-11-55, 1251  
h/r: 20214000205204667006  
ATB “Aloqabank”  
МФО: 00401 STIR: 307281137  
ОКЭД: 65120



**NAF OLUVCHI:**  
AT «ALOQABANK»

Manzil: O'zbekiston Respublikasi,  
Toshkent sh., Muminova ko'ch., 4/1  
tel: +71-232-83-53  
h/r: 29802000800000401113  
ATB “Aloqabank”  
МФО: 00401 STIR: 200829053  
ОКЭД: 64190



20 25-yil 15 - avgustdag'i №  
0100-111-250014-sonli  
Bosh shartnomaga  
1-ILOVA

## GAROVGA QO'YILAYOTGAN KO'CHMAS MULKNI SUG'URTALASH OMMAVIY OFERTASI

Mazkur Ommaviy oferta (*keyingi o'rinnlarda "Oferta"*) "SEMURG INSURANCE" AJ ning (*keyingi o'rinnlarda "Sug'urtalovchi"*) noma'lum doiradagi yuridik shaxslarga (*keyingi o'rinnlarda "Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi"*) yo'llangan quyidagi sug'urta shartlarida, qonunchilikka zid bo'limgan tartibda Sug'urtalovchining dasturiy ta'minotida (*keyingi o'rinnlarda "axborot tizimi"*) sug'urta shartnomasini tuzish taklifi bo'lib hisoblanadi. Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi shartnoma tomonlaridir.

Mazkur Oferta shartlarining qabul qilinishi va shartlashilgan sug'urta mukofotining to'lanishi uning shartlarini akseptlanishi Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchining Sug'urta shartnomasini tuzishga roziligi bo'lib hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlanganidan so'ng unga elektron sug'urta polisi Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (*keyingi o'rinnlarda "Yagona tizim"*) orqali rasmiylashtiriladi va Sug'urta shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

### 1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur oferta shartlariga ko'ra, Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi/Garovga qo'yuvchining sug'urtalangan mulkka egalik qilish, boshqarish va foydalanish huquqi bilan bog'liq mulkiy manfaatlari sug'urta ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Sug'urtalangan mulk haqidagi ma'lumotlar Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi/Garovga qo'yuvchi tomonidan to'ldirilgan ariza-anketa va sug'urta polisida ko'rsatiladi.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq Oferta shartlarining qabul qilinishi mazkur Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilingan deb hisoblanadi va u bilan quyidagilarga roziligi ifodalanadi:

1.2.1. mazkur Oferta shartlari, jumladan unda bayon qilingan sug'urta shartlariga rozilik;

1.2.2. arizani to'ldirishda ko'rsatilgan shaxsga doir ma'lumotlar bilan sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan tarzda ishlov berish yo'li orqali Sug'urta polisini amal qilishining butun muddati davomida hamda sug'urta polisini amal qilishi tugagan sanadan boshlab 5 yil muddatga ishlashga, jumladan ularni yig'ish, tizimlashtirish, toplash, saqlash, aniqlashtirish, ulardan foydalanish, ularni egasini ko'rsatmaslik, bloklash, yo'q qilishga (yo'q qilish haqida xabar qilmagan holda), shuningdek sug'urta shartnomasini bajarish, ichki hujjat aylanmasini ta'minlash maqsadida uchinchi shaxslarga ularni berishga rozilik.

1.3. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi sifatida ushbu Oferta shartlariga ko'ra Sug'urtalovchi bilan sug'urta shartnomasini tuzgan muomalaga layoqatli va huquqiy layoqatli jismoniy shaxslar, O'zbekiston fuqarolari, fuqaroligi bo'limgan shaxslar va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtinchalik yashovchi chet el fuqarolari bo'lishi mumkin.

1.4. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi Sug'urtalovchining axborot tizimida Sug'urta shartnomasini tuzish natijasida o'z huquqi va muomalaga layoqatligini tasdiqlaydi, shuningdek o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar yuzasidan javobgarlikni angraydi.

1.5. Sug'urtalovchining axborot tizimida onlayn tarzda Sug'urta shartnomasini tuzish uchun Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchidan uning **elektron pochta manzili** va/yoki **mobil telefon raqami** mavjudligi talab qilinadi.

1.6. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi tomonidan Sug'urtalovchining internet resursida Sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur va muhim

bo'lgan barcha ma'lumotlarni kiritishi Sug'urta shartnomasini tuzish uchun ariza bo'lib hisoblanadi.

1.7. Sug'urtalovchi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 62-moddasi talablariga muvofiq Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi va Sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan boshqa shaxsga doir ma'lumotlari saqlanishini va oshkor qilinmasligini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.8. "Oferta", "Sug'urta shartnomasi" va "Sug'urta polisi" havolalari bundan buyon matnda mazkur elektron hujjatga nisbatan bir xil ahamiyatga ega bo'ladi.

**1.9. Oferta orqali Sug'urta shartnomasini tuzish tartibi:**

1.9.1. Mazkur Oferta Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchiga sug'urta xizmatlarini sotish va ko'rsatish shartlarini belgilaydigan elektron hujjat bo'lib hisoblanadi;

1.9.2. Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi tomonidan Sug'urtalovchiga axborot tizimlaridan foydalangan holda taqdim etilgan ma'lumotlar asosida shakllanadi;

1.9.3. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi elektron arizaning to'ldirilishi shart bo'lgan kataklarini mustaqil va arizada ko'rsatilgan hujjatlarning aslidagi ma'lumotlarga qat'iy muvofiq holda to'ldiradi;

1.9.4. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi arizada ko'rsatilgan hujjatlarning ishonchiligi va asliga to'g'ri ekanligi uchun zimmasiga javobgarlikni oladi, shuningdek arizada ko'rsatilgan hujjatlarni ularning asliga muvofiq bo'limganida sug'urta hodisasi yuz bergen taqdirda, Sug'urtalovchi sug'urta tovoni to'lashni rad etish huquqiga ega ekanligiga rozi bo'ladi;

1.9.5. Arizada ko'rsatilgan va unga kiritilgan hujjatlarning ma'lumotlari avtomatik ravishda Sug'urta shartnomasiga (Sug'urta polisiga) kiritiladi.

1.9.6. Ofertada taklif qilinadigan sug'urta shartlariga rozi bo'lgan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi Sug'urtalovchining axborot tizimida o'z roziligini tegishli tugmani bosish orqali (/) tasdiqlaydi. Sug'urta shartnomasini tuzish uchun arizani (keyingi o'rinnarda "Ariza") Sug'urtalovchining axborot tizimidan foydalangan holda onlayn tarzda to'ldirishga kirishadi.

1.9.7. Arizani to'ldirishda Sug'urtalovchi uchun sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha zarur ma'lumotlarni va sug'urta hodisasi yuz berishidan ko'riliishi mumkin bo'lgan zararlar miqdorini (sug'urta tavakkalchiligin) ko'rsatish talab qilinadi. Barcha ma'lumotlar hujjatlarning asliga qat'iy muvofiqlikda ko'rsatilishi kerak.

1.9.8. Ariza to'ldirilganidan keyin, Sug'urtalovchining axborot tizimi tomonidan "Sug'urta mukofotini to'lash va Sug'urta polisini rasmiylashtirish" tugmasidan foydalanishga avtomatik tarzda ruxsat beriladi.

1.9.9. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi tomonidan sug'urta polisini (polisga havolani) olishi Sug'urta shartnomasi taraflari sug'urta shartnomasini (sug'urta polisini) lozim darajada imzolanganligini tasdiqlaydi.

1.9.10. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchining sug'urta mukofotini to'laganligi fakti Sug'urtalovchining axborot tizimi tomonidan tasdiqlangan sana mazkur Ommaviy oferta aksept qilingan va Sug'urta shartnomasi tuzilgan sanadir.

**1.10. Sug'urta shartnomasi (polislari) bo'yicha sug'urta mukofoti to'lovini amalga oshirish tartibi:**

1.10.1. Sug'urta shartnomasi (polisi) bo'yicha sug'urta mukofoti to'lovni amalga oshirish Sug'urtalovchi tomonidan qo'llaniladigan axborot (onlayn) tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi;

1.10.2. To'lov tizimining himoyalangan kanaliga keyingi qayta yo'naltirish uchun ariza qabul qilinganligini tasdiqlash Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi,

Garovga qo'yuvchi arizani to'ldirayotganida ko'rsatib o'tgan mobil telefon raqamiga SMS-xabarni jo'natish yo'li bilan amalga oshiriladi;

1.10.3. SMS-xabar tasdiqlash kodi bilan birga olinganidan keyin Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchi elektron to'lov tizimini, bank hisob raqami orqali tanlashi zarur, undan keyin u sug'urta mukofotining hisoblangan summasini Sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazish orqali amalga oshiriladi;

1.10.4. Sug'urta polisi bo'yicha sug'urta mukofoti to'lovi to'langanligi haqidagi tasdiq olinganidan keyin Sug'urtalovchining axborot tizimi Sug'urta polisini rasmiylashtirishni elektron shaklda avtomatik tarzda amalga oshiradi, uni Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchining elektron pochta manziliga yo'llaydi va/yoki Sug'urta polisining seriyasi va raqami, Sug'urta polisi elektron tarzda jo'natilganligi fakti haqidagi ma'lumotlarni ichiga olgan SMS-xabar jo'natilishi yo'li bilan Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchini xabardor qiladi.

1.10.5. Sug'urtalovchi to'lov provayderining harakatlari/harakatsizligi uchun, shuningdek Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Garovga qo'yuvchining elektron to'lovlar tizimi va internet orqali to'lash bilan bog'liq zararlari va tavakkalchiliklari uchun javobgar bo'lmaydi.

1.10.6. Sug'urtalovchining axborot tizimida "Sug'urta mukofotini to'lash va Sug'urta polisini rasmiylashtirish" tugmasini bosish bilan, shuningdek shakllantirilgan sug'urta mukofotini to'lagan holda Oferta yo'llangan shaxs O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq mazkur Oferta shartlariga rozi ekanligini bildiradi.

1.10.7. Mazkur Shartnomaning rus va ingлиз tillardagi matni faqat ma'lumot tariqasida taqdim etilishi mumkin. Agar rus, o'zbek va ingliz tillardagi matnlarni talqin qilishda biror bir tafovut vujudga kelgan taqdirda, mazkur Shartnomaning o'zbek tildagi matni boshqa tillardagi matnga nisbatan ustuvor kuchga ega bo'ladi.

## 2. ASOSIY TUSHUNCHALAR

2.1. Shartnomada qo'llanilgan asosiy tushunchalar quyidagi ma'nolarga ega:

**Sug'urta qildiruvchi** – mulkini garovga qo'ygan shaxs

**Sug'urta qiymati** – sug'urta Shartnomasini tuzish paytida Tomonlarning kelishuviga ko'ra aniqlanadigan, sug'urta manfaati bilan bog'lanadigan mol-mulk qiymati (FK 935).

**Sug'urta summasi** – Ariza-anketada ko'rsatilgan, sug'urta ob'ekti sug'urtalangan, sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchi javobgarligi hajmining chegarasini o'zida aks ettiruvchi pul mablag'lari miqdori.

**Sug'urta mukofoti** (sug'urta badali/to'lovi) – Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Sug'urtalovchiga ushbu Ariza-anketada belgilangan tartib va muddatda sug'urta uchun to'lashi shart bo'lgan to'lov. Sug'urta mukofotini bosqichma-bosqich, navbatdagi sug'urta badallari ko'rinishida to'lanishi nazarda tutilishi mumkin.

**Sug'urta tovoni** – sug'urta hodisasi sodir bo'lganda, sug'urtalangan mol-mulkka yetkazilgan zararni qoplash uchun sug'urta puli chegarasida to'lanadigan pul mablag'i.

**Sug'urta polisi** – Sug'urtalovchining sug'urta Shartnomasi bo'yicha majburiyatlar kuchga kirganligini tasdiqlovchi, Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchiga ushbu sug'urta Shartnomasining ajralmas qismi hisoblangan Ariza anketada belgilangan tartib va muddatlarda sug'urta mukofoti to'langanidan keyin beriladigan hujjat.

**Sug'urta (hududi) joyi** – Sug'urtalovchi sug'urta himoyasini taqdim etadigan, sug'urtalangan mol-mulk joylashgan o'rni. Sug'urta joyi O'zbekiston Respublikasi hududi

**franshiza** — sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan, sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydigan sug'urta qildiruvchi zararlarining bir qismi. Franshiza ham sug'urta summasidan foizlar ko'rinishida, ham aniq summada o'rnatilishi, hamda shartli va shartsiz bo'lishi mumkin. Shartli franshiza o'rnatilganda, sug'urtalovchi franshiza miqdoridan ko'p bo'limgan zarar uchun javobgarlikdan ozod bo'ladi. Shartsiz franshiza o'rnatilganda esa, sug'urtalovchining javobgarligi zarardan franshiza miqdorini chegirib qolgan holda aniqlanadi.

**Yong'in** – o't oldirish va ushlab turish uchun maxsus mo'ljallangan joylardan

tashqariga ixtiyoriy ravishda tarqalish xususiyatiga ega olov.

**Olov** – bu ko'zga ko'rinaradigan diapazonda nurlanish va issiqlik energiyasining chiqishi bilan birga bo'lgan kuchli oksidlanish jarayoni.

**Yashin urishi** – mol-mulkdan mahrum bo'lism (nobud bo'lismi)ga olib keluvchi, unga yashinning to'g'ridan-to'g'ri tegishi (yashin – bulutlar o'tasidagi yoki bulut va yer o'tasidagi elektr razryadi). Yashinning issiq ta'siri va yashin oqibatida havo bosimi ta'siri ham sug'urta bilan qoplanadi.

**Zilzila** – yer qa'rida muntazam sodir bo'ladigan, yerning ustki qismi silkinishi va tebranishi bilan kuzatiladigan tabiy jarayonlar natijasi.

**Suv toshqini** – daryo, ko'l, dengiz sathining ko'tarilishi yoki damba, to'g'on buzilishi natijasida hududni sezilarli darajada suv bosishi.

**Ko'chki** – shamol yoki yerusti yoki yerosti suvlarining ta'sirida qirg'oq yonbag'irlarini yuvilishi va jinslarning og'irlik kuchi ta'sirida yoki zilzila natijasida tog' jinslarning qulashi.

**Yer siljishi** – dengizlar, ko'llar, daryolar, jarliklar yaqinida, chuqurliklarning, kanalarning tik qiyaliklari, shuningdek tog'larda o'z og'irlik kuchi ta'sirida yer massasining sekin siljishi.

**Kuchli shamol** – tezligi 15 m/sdan ortiq bo'lgan davomli va kuchli shamol;

**Dovul** – tezligi 30 m/s dan ortiq bo'lgan kuchli shamol. Shamol tezligi O'zbekiston Respublikasi Gidrometmarkazining hududiy muassasalari ma'lumotnomalari bilan tasdiqlanadi.

**Do'l urishi** – do'lning bevosita ta'siri oqibatida sug'urtalangan mol-mulkni har qanday yo'qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi.

**Jala** – 12 soat yoki undan kam vaqtida 30 mm yoki undan ortiq katta miqdorda yog'ingarchilik bo'lismi bilan kuzatilgan kuchli yomg'ir.

**Qalin qor yog'ishi** – bunday qor yog'ishi ushbu hudud uchun kamdan-kam (g'ayrioddiy) holat bo'lismi sharti bilan qisqa vaqt oralig'ida odatdagidan ko'p miqdorda – 12 soat va undan kam vaqtida 20 mm va undan ko'p qor yog'ishi.

**Suvdan zararlanish** – ichimlik suvi, oqava suvlar, isitish tizimlari (santexnika vositalari ham), yong'inni o'chirish va haroratni maromida saqlash tizimlaridan chiqqan suv yoki suyuqlikning sug'urtalangan mol-mulkka jismoniy ta'sir qilishi yoki Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchilarga tegishli bo'limgan qo'shni joylardan suv kirishi.

**Yer usti transport vositalari bilan to'qnashishi** – sug'urtalangan mol-mulk har qanday yer usti transport vositasi bilan to'qnashishi natijasida yo'qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi.

**Uchuvchi vositalarning qulashi** – uchuvchi apparatlar, ularning qismlari yoki yuklari tushishi natijasida sug'urtalangan mol-mulkni har qanday bevosita yo'qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi.

**Ommaviy oferta shaklidagi ariza (ariza-anketa)** – Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan sug'urta ob'ekti, Kredit shartnomasi hamda Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lib, ushbu ma'lumotlar Sug'urtalovchi tomonidan qabul qilingandan va sug'urta mukofoti to'langandan so'ng aniq bir Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchiga beriladigan sug'urta polisining ajralmas qismi bo'lgan hujjat;

**JFODLTMVOQQTM** - jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in quroolini tarqatishni moliyalashtirish;

**Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (Yagona tizim)** – manfaatdor vazirliklar va idoralarning axborot tizimlari va markaziy ma'lumotlar bazalari, jismoniy va yuridik shaxslar markaziy ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyalashgan sug'urta bozori ma'lumotlarini hisobga olish va iste'molchilarga elektron sug'urta xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatini ta'minlovchi yagona tizim.

### 3. SUG'URTA HODISALARI

3.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha Sug'urtalovchi Sug'urtalangan mulkka quyidagi tavakkalchiliklar bo'yicha sug'urta hodisasi yuz berishi natijasida sug'urta ob'ektlariga zarar

yetkazilgan va bu fakt maxsus vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan taqdirda Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) va/yoki Naf oluvchiga zararni qoplab berish majburiyatini oladi:

3.1.1. **Yong'in:** olov ta'sirida, yashin urishi;

3.1.2. **Mexanik shikastlanish:** transport vositalarining kelib urilishi, uchuvchi apparatlar va ularning qismlarining kelib tushishi,

3.1.3. **Tabiiy ofatlar:** zilzila, o'pirilish, sel kelishi, kuchli shamol, dovul, bo'ron, jala, suv toshqini, shiddatli atmosferaviy yog'ingarchilik shuningdek, uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari.

3.2. Mazkur sug'urta shartnomasi nomuayyan muddatga tuzilgan.

3.3. Sug'urtalovchining javobgarligi sug'urta mukofoti Sug'urtalovchining hisobvarag'iga kelib tushgandan boshlanadi va sug'urta polisida ko'rsatilgan muddatda amal qiladi (Sug'urta mukofotini to'lash sharti Ariza-anketada ko'rsatiladi).

3.4. Kredit shartnomasi uzaytirilganda, sug'urtalash davri qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lash sharti bilan uzaytiriladi.

3.5. Mazkur Shartnomaga muvofiq quyidagi hollarda sug'urta hodisasi tan olinmaydi va Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashdan ozod qilinadi:

3.5.1. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi yoki Qarz oluvchi sug'urta hodisasi yuz bergenligi to'g'risidagi hujjatlarni 72 soat ichida Sug'urtalovchiga taqdim etmaganligi sababli qaror qabul qilishning iloji bo'limganda;

3.5.2. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi Sug'urtalovchini sug'urta hodisasining sabablari va holatlarini aniqlashda, shuningdek zarar miqdorini belgilashda ishtirok etishiga to'sqinlik qilganda;

3.5.3. ijara, tekinga foydalanish va qayta garovga qo'yishda sug'urtalovchining yozma roziligi olinmaganda.

3.6. Shartnoma doirasida sug'urtalangan mulkka quyidagi sabablarga ko'ra to'liq yoki qisman yetkazilgan zarar qoplanmaydi:

3.6.1. harbiy bosqinchilik harakati, harbiy harakatlar yoki urushga o'xshash harakatlar (urush e'lon qilingan yoki e'lon qilinmaganligidan qat'i nazar), fuqarolar urushi;

3.6.2. qo'zg'olon, ommaviy tartibsizliklar, milliy xarakterdagи ish tashlashlar;

3.6.3. shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan sodir etilgan terrorchilik harakati;

3.6.4. sug'urtalangan mulkning bozor qiymatining yo'qotilishi.

3.7. Sug'urta Shartnoma/polisi, agar Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi xavf darajasining o'zgarishiga bevosita ta'sir qiluvchi holatlar o'zgarishi haqida o'z vaqtida xabar bermasa, Sug'urtalovchining talabi bilan bekor qilinishi mumkin. Agar sug'urta xavfining ortishiga sabab bo'lувchi holatlar allaqachon ortda qolgan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta Shartnoma/polisining bekor qilinishini talab qilishga haqli emas.

3.8. Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollarda sug'urta tovonini to'lashdan ozod qilinadi.

#### **4. SUG'URTA PULI, SUG'URTA QIYMATI VA SUG'URTA MUKOFOTI**

4.1. Har bir Qarz oluvchi bo'yicha sug'urta summasi Bank tomonidan taqdim etilgan va muayyan Sug'urta polisining ajralmas qismi bo'lgan Anketa-arizada ko'rsatilgan ma'lumotlar va axborotlar asosida belgilanadi.

4.2. Shartnomada barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda amalga oshiriladi Sug'urta mukofoti Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi bilan kelishilgan miqdorda to'lanadi. Sug'urta mukofotining miqdori Sug'urta summasiga nisbatan yillik 0,1 foizdan kam 1,0 foizdan ko'p belgilanishi mumkin emas.

4.3. Har bir alohida sug'urta polisi bo'yicha sug'urta summasi Kredit shartnomasi bo'yicha kredit summasining 125 (bir yuz yigirma besh) foizidan ko'p bo'limgan summani tashkil qiladi.

4.4. Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Ariza-anketani to'liq hajmda taqdim etgandan so'ng Sug'urta mukofoti 1 (bir) kun ichida to'lanishi kerak. Mablag'lar Sug'urtalovchining

bank hisobvarag'iga to'liq kelib tushgan kun sug'urta mukofoti to'langan kun hisoblanadi. Sug'urta shartnomasi Yagona tizimda ro'yxatdan o'tkazilganidan va sug'urta mukofoti to'langanligi sug'urtalovchi tomonidan elektron tarzda tasdiqlanganidan so'ng sug'urta polisi Yagona tizim orqali avtomatik tarzda rasmiylashtiriladi.

## 5. SHARTNOMANING AMAL QILISHI VA BEKOR BO'LISHI

5.1. Ushbu Shartnoma nomuayyan muddatga tuzilgan. Shartnoma Tomonlarning maxsus vakolatga ega bo'lgan shaxslari imzolagan kundan kuchga kiradi. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha javobgarligi sug'urta mukofoti (yoki uning birinchi qismi) Sug'urtalovchi bank hisob raqamiga kelib tushgan sanadan keyingi kunning 00.00 soatidan e'tiboran kuchga kiradi.

5.2. Sug'urta Shartnoma/Polisi quyidagi hollarda tugatiladi:

5.2.1. Sug'urtalovchining javobgarlik muddati tugaganda;

5.2.2. Sug'urtalovchi tomonidan Shartnoma/Polis bo'yicha majburiyatlarning to'liq hajmda bajarilganda;

5.2.3. Shartnoma/Polis bekor qilingan (muddatidan ilgari tugatilgan) taqdirda:

a) Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)ning yozma arizasiga binoan;

b) Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) tomonidan Shartnoma/Polis bo'yicha majburiyatlarning bajarilmaganligi tufayli;

d) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidida ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

5.3. Sug'urta Shartnoma/Polisi Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi tomonidan muddatidan oldin bekor qilinganda va/yoki kredit shartnomasi bo'yicha barcha majburiyatlar Qarz oluvchi tomonidan muddatidan oldin bajarilgan taqdirda to'langan sug'urta mukofotining sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda qolgan mablag'ni hamda Sug'urtalovchi tomonidan qilingan xarajatlar uchun 50 (ellik) foizi chegirib qoligan holda Sug'urta qildiruvchiga qaytarib beriladi (agar sug'urta Polisining amal qilish vaqtida sug'urta tovoni to'lovi amalga oshirilgan bo'lsa, sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi).

5.4. Shartnoma/Polisni bekor qilish niyatları haqida agar boshqa holatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) va Sug'urtalovchi bir-birlarini sug'urta Shartnoma/Polisi tugatilishi kutilayotgan sanadan kamida 15 (o'n besh) kalendar kuni avval yozma ravishda ogohlantirishlari shart. Sug'urta Shartnoma/Polisi bildirishnomada Shartnoma/Polisning amal qilishi tugatiladigan kun sifatida ko'rsatilgan kunning 00.00 soatidan e'tiboran tugatilgan hisoblanadi.

5.5. Sug'urta Ariza-anketa rasmiylashtirilgan/tuzilgan vaqtidan e'tiboran, O'zbekiston Respublikasining amaldagi fuqarolik qonunchiligidida ko'zda tutilgan asoslarda hamda quyida keltirilgan hollarda haqiqiy emas, deb topilishi mumkin:

5.5.1. Ariza-anketada ko'rsatilgan sug'urta mukofoti belgilangan vaqtida to'lanmasa;

5.5.2. Ariza-anketa sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin rasmiylashtirilgan/tuzilgan bo'lsa;

5.5.3. Ariza-anketada keltirilgan sug'urtalangan mol-mulk jinoiy yo'l bilan topilgan, xatlangan, hibsda yoki sud qarori asosida musodara etilgan bo'lsa;

5.5.4. Sud Shartnoma/Polisni haqiqiy emas deb topish to'g'risida qaror qabul qilgan bo'lsa.

5.6. Sug'urta Shartnoma/Polisi haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa, sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)ga Sug'urtalovchi tomonidan ishni olib borishga ketgan xarajatlarni chegirib qoligan holda qaytariladi, Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) va/yoki Naf oluvchiga to'langan sug'urta tovoni esa, bir oy muddat ichida Sug'urtalovchiga to'liq hajmda qaytarilishi lozim.

## 6. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### 6.1. Sug'urta qildiruvchining huquqlari:

6.1.1. sug'urta Shartnomasi shartlariga ko'ra, sug'urta summasi doirasida, haqiqiy yetkazilgan zarar miqdorida sug'urta tovonini olish;

6.1.2. qonuniy asoslarda, boshqa huquqiy aktlar yoki Shartnomada mulkning

saqlanishidan manfaatdor uchinchi shaxs (Naf oluvchi) foydasiga sug'urta Shartnomasini tuzish;

6.1.3. Sug'urtalovchi bilan kelishgan holda sug'urta Shartnomasi shartlarini o'zgartirish;

6.1.4. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi, ushbu Shartnoma va sug'urta qilish Qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanish.

**6.2. Sug'urta qildiruvchi/Garovga qo'yuvchining majburiyatları:**

6.2.1. sug'urta Shartnomasi tuzilganda Sug'urtalovchiga xavf darajasini baholash va Sug'urtalovchi o'z zimmasiga javobgarlikni olishi uchun muhim bo'lgan shart-sharoitlarni tavsiflovchi barcha talab qilingan axborotni xabar qilish. Muhim deb, Sug'urtalovchining sug'urta Shartnomasini tuzish haqida yoki Shartnomaning mazmuni haqidagi qaroriga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlar hisoblanadi;

6.2.2. Sug'urtalovchiga sug'urta ob'ektiga taalluqli barcha tuzilgan yoki tuzilayotgan sug'urta shartnomalari haqida xabar qilish;

6.2.3. sug'urta mukofotini Shartnomada belgilangan miqdorda va tartiblarda to'lash;

6.2.4. zararning kelib chiqishi va xavf darajasining ortishining oldini olish uchun barcha maqbul ehtiyyot choralarini qo'llash;

6.2.5. sug'urtalangan ob'ektni ekspluatatsiya qilish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha me'yoriy hujjatlar va Yo'riqnomalar talablariga rioya etish, shuningdek ushbu ob'ektdan faqatgina to'g'ridan-to'g'ri belgilangan maqsadda foydalanish;

6.2.6. Sug'urtalovchiga xavf darajasining o'zgarishini keltirib chiqaruvchi barcha holatlar haqida xabar berish;

6.2.7. sug'urta shartlari o'zgarganda uch kun muddat ichida Sug'urtalovchiga sug'urta Shartnomasini bekor qilish yoki qayta rasmiylashtirish haqida yozma ravishda xabar berish;

6.2.8. Sug'urta shartnomasining amal qilish davrida Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi/Naf oluvchi shartnoma tuzilayotganda sug'urtalovchiga ma'lum qilingan holatlarda yuz bergen, o'ziga ma'lum bo'lgan muhim o'zgarishlar to'g'risida, agar bu o'zgarishlar sug'urta xavfi ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, Sug'urtalovchiga darhol xabar qilishi shart. Sug'urta Shartnomasi (Polisi)da va Sug'urta qildiruvchiga berilgan Ommaviy ofertada ko'rsatilgan o'zgarishlar muhim deb hisoblanadi.

6.2.9. o'g'irlangan (yo'qolgan) sug'urtalangan mulk topilsa va Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)ga qaytarilsa yoki Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)ga o'g'irlangan (yo'qolgan) mulkning turgan joyi ma'lum bo'lsa, bu haqda zudlik bilan Sug'urtalovchiga xabar berish;

6.2.10. Sug'urtalovchi bilan oldindan kelishmasdan turib, sug'urtalangan mulkniga ta'mirlash-qayta tiklash ishlarini amalga oshirmaslik;

6.2.11. sug'urta ob'ektiga nisbatan tergov yoki sud ishlari haqida zudlik bilan Sug'urtalovchiga yozma ravishda xabar berish;

6.2.12. mazkur Shartnomaning amal qilish davrida Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) mazkur Shartnoma tuzilayotganda Sug'urtalovchiga ma'lum qilingan holatlarda yuz bergen, o'ziga ma'lum bo'lgan muhim o'zgarishlar to'g'risida, agar bu o'zgarishlar sug'urta xavfi ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, Sug'urtalovchiga darhol xabar qilishi.

Quyidagi o'zgarishlar muhim deb hisoblanadi: sug'urta ob'ektining joylashgan joyi (sug'urta qilish joy), faoliyat turi, moddiy – texnik boyliklar va xom ashyolarni saqlash sharoitlari, texnik jarayonlarning o'zgarishi, bino va inshootlarning konstruktiv xususiyatlarini o'zgarishi, yong'in va xavfsizlik signalizatsiyasini o'zgartirish, transformatorlar himoyasini o'zgartirish;

6.2.13. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi, ushbu Shartnoma va sug'urta qilish Qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

**6.3. Sug'urta qildiruvchi/garovga qo'yuvchining sug'urta hodisasi yuz bergandagi majburiyatları:**

6.3.1. zararni kamaytirish va sug'urtalangan ob'ektni saqlab qolish uchun barcha

amalga oshirilishi mumkin bo'lgan, shu jumladan Sug'urtalovchi tomonidan tavsiya etilgan choralarni ko'rish;

6.3.2. zarar aniqlangan daqiqadan boshlab, bu haqda zudlik bilan maxsus vakolatli organlarga ma'lum qilish va 72 soat ichida (bayram kunlarini hisobga olmagan holda) har qanday maqbul yo'l bilan (telefon orqali) Sug'urtalovchiga xabar berish;

6.3.3. xabar bergan kundan boshlab, 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmagan holda zarar aniqlanganligi haqida yozma arizani (Sug'urtalovchi tomonidan belgilangan shakldagi) va 30 (o'ttiz) kalender kuni ichida Sug'urtalovchi tomonidan talab qilingan hamda sug'urta Shartnomasi shartlariga ko'ra faktini tasdiqlash, zarar sababi va miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan boshqa hujatlarni taqdim etish;

6.3.4. Sug'urtalovchiga shikastlangan sug'urta ob'ektini ko'zdan kechirish yoki tekshirish, zarar sababi va miqdorini aniqlash uchun tergov ishlarini olib borishga imkon yaratib berish;

6.3.5. Sug'urtalovchining talabiga ko'ra sug'urtalangan ob'ektning nobud bo'lishi yoki shikastlanishi sababi va zarar miqdorini mulohaza qilish uchun zaruriy barcha ma'lumotlarni yozma ravishda taqdim etish;

6.3.6. Sug'urtalovchiga shikastlangan, nobud bo'lgan yoki yo'qolgan sug'urta ob'ektlarining ro'yxati (tavsifi)ni berish. Bu ro'yxat (tavsif) Sug'urtalovchi bilan kelishilgan muddatda, lekin har qanday holatda ham sug'urta hodisasi yuz bergan kundan boshlab bir oydan kechiktirmagan holda taqdim etilishi lozim. Tavsiflar shikastlangan sug'urta ob'ektlarining sug'urta hodisasi yuz bergan kundagi qiymati (narxi)ni ko'rsatgan holda tuziladi;

6.3.7. shikastlangan sug'urta ob'ektlarini sug'urta hodisasidan keyin qanday ahvolda bo'lsa, shu ko'rinishda saqlab qolish. Zarar ko'rilgandagi holatni faqatgina, xavfsizlik va/yoki zarar miqdorini kamaytirish nuqtai nazarlaridan o'zgartirish mumkin;

6.3.8. sug'urta hodisasi ro'y berganda, sug'urta ob'ektini ta'mirlash va/yoki qayta tiklash (texnik ta'mirga olib kirish) uchun Sug'urtalovchining yozma roziligini olishi shart;

6.3.9. Sug'urtalovchi tomonidan aybdor shaxslarga nisbatan talab qilish huquqining amalga oshirilishi uchun unga barcha hujatlarni berish va choralarni ko'rish.

#### **6.4. Sug'urtalovchining huquqlari:**

6.4.1. Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) tomonidan taqdim etilgan ma'lumotni va sug'urta ob'ektning berilgan tavsifga muvofiqligini, shuningdek Shartnomada shartlariga amal qilinishi (rioya qilinishi)ni nazorat qilish;

6.4.2. sug'urtalangan ob'ektning holati (ahvoli)ni tekshirish;

6.4.3. mustaqil ravishda sug'urta hodisasi sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash;

6.4.4. Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) va/yoki Naf oluvchidan sug'urta hodisasi yuz bergenlik faktini yoki to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta toponi miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan axborotni, shuningdek tijorat sirini tashkil etgan ma'lumotlarni talab qilish;

6.4.5. Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)dan sug'urta hodisasi yuz bergenlik faktini yoki to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta toponi miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan axborotni, shuningdek tijorat sirini tashkil etgan ma'lumotlarni talab qilish;

6.4.6. zarur bo'lganda, maxsus vakolatli organlarga sug'urta hodisasi yuz bergenlik faktini va sabablarni tasdiqlovchi hujatlarni va ma'lumotlarni taqdim etish haqida so'rovnama yuborish;

6.4.7. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi, ushbu Shartnomada va sug'urta qilish Qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanish.

#### **6.5. Sug'urtalovchining majburiyatları:**

6.5.1. imzolangan sug'urta Shartnomalari bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarning bajarilishini kafolatlash;

6.5.2. Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) va/yoki Naf oluvchi haqida va uning mulkiy holati haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, O'zRning amaldagi qonunchiligidagi

ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno;

6.5.3. Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) va/yoki Naf oluvchidan sug'urta shartlarining o'zgarganligi haqidagi xabarini yoki bildirish xatini olgach, besh kunlik muddat ichida sug'urta Shartnomasiga o'zgartirishlar kiritish yoki Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) va/yoki Naf oluvchiga xabar qilgan holda uni bekor qilish;

6.5.4. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi, ushbu Shartnoma va sug'urta qilish Qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

#### **6.6. Sug'urtalovchining sug'urta hodisasi haqidagi xabarni olgandan so'ng yuzaga keladigan majburiyatları:**

6.6.1. zarar miqdori (summasi)ni aniqlash (o'z hisob-kitoblari yoki mustaqil ekspertiza xulosalari, ta'mirlash tashkilotlari yoki boshqa tashkilotlar hujjatlari asosida) va sug'urta tovoni summasini hisoblash;

6.6.2. sug'urta dalolatnomasini tuzish va yuz bergen voqeasini sug'urta hodisasi, deb tan olingan taqdirda, sug'urta tovonini to'lab berish. Sug'urta tovonini to'lash muddatlariga amal qilinmaganda sug'urta Shartnomasida belgilangan miqdorda jarima to'lash;

6.7. Sug'urtalovchi sug'urta qoplamasini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarorini Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)ga u sug'urta qoplamasini to'lashni so'rab murojaat etganidan keyin rad etish sabablarining asoslangan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan holda 15 (o'n besh) ish kunidan kechiktirmay xabar qiladi. Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)ning sug'urta qoplamasini to'lashni so'rab murojaat etgan kuni bo'lib, u tomonidan Sug'urtalovchining to'lov yoki rad etish to'g'risidagi qarorini qabul qilish uchun asos bo'lgan zarur hujjat taqdim etilgan kun hisoblanadi.

### **7. SUG'URTA DA'VOSINI KO'RIB CHIQISH VA SUG'URTA TOVONINI TO'LASH**

7.1. Sug'urta tovoni Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan Ariza-anketada belgilangan sug'urta mukofotini to'liq va o'z vaqtida to'lagandagina to'lab beriladi. Agar Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) sug'urta hodisasi sodir bo'lunga qadar Ariza-anketada ko'satilgan sug'urta mukofotining faqatgina bir qismini to'lagan bo'lsa, u holda Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz bergen vaqtida sug'urta summasining miqdorini sug'urta mukofotining to'langan qismiga mutanosib ravishda cheklaydi.

7.2. Shartnomaga asosan sug'urtalovchi tomonidan sug'urta tovonini to'lashda franchiza qo'llanilmaydi.

7.3. Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)ning sug'urtalangan ob'ektga zarar yetkazilganligi haqidagi arizasi, Sug'urtalovchining vakillari tomonidan tuzilgan ko'zdan kechirish dalolatnomasi hamda vakolatli organlarning (Gidrometeorologik xizmat, DYN, FVV, IIV, tergov organlari, sud va boshqa maxsus vakolatli organlarning qarori) hujjatlari sug'urta qoplamasini to'lab berish uchun asos hisoblanadi.

Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Sug'urtalovchiga ariza bilan birligida zarar sababi va miqdorini tasdiqlovchi barcha zarur hujjatlarni taqdim etishi shart.

7.4. Har bir Tomon mustaqil ekspertizani, uni o'tkazish taklifini bildirgan Tomon hisobiga o'tkazilishini talab qilish huquqiga ega. Ekspertiza o'tkazilgandan so'ng sug'urta hodisasi hisoblanmaydigan hodisalar bo'yicha ekspertiza xarajatlari Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) tomonidan qoplanadi.

7.5. Zarar quydagicha aniqlanadi:

7.5.1. mol-mulk nobud bo'lganda foydalanishga yaroqli qoldiq qismlar qiymatini chegirgan holda uning sug'urta summasi miqdorida;

7.5.2. mol-mulkka shikast yetganda – uni qayta tiklashga ketadigan xarajatlar miqdorida.

7.6. Qayta tiklashga ketadigan xarajatlar o'z ichiga quydagilarni oladi:

7.6.1. mulkni qayta tiklash uchun zarur materiallar va ehtiyoj qismlarga xarajatlar. Qayta tiklash xarajatlari qayta tiklash (ta'mirlash) jarayonida almashtirilayotgan materiallar

va ehtiyyot qismlarning eskirishini hisobga olgan holda aniqlanadi, aynan: agar mulkning eskirishi 30 foizdan oshsa, u holda mulkni qayta tiklashga ketadigan xarajatlardan ta'mir jarayonida almashtirilgan alohida qismlar (detallar, elementlar va boshqalar)ning qoldiq qiymati chegirib tashlanadi;

7.6.2. qayta tiklash bo'yicha xizmat xarajatlari.

7.7. Quyidagilar qayta tiklashga ketadigan sarflarga kirmaydi:

7.7.1. sug'urtalangan ob'ektni o'zgartirish va/yoki yaxshilash bilan bog'liq xarajatlar;

7.7.2. vaqtinchalik (yordamchi) ta'mirlashga ketadigan xarajatlar.

7.8. Barcha sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urta tovonlari yig'indisi Shartnoma/Polisda belgilangan sug'urta summasidan oshib ketishi mumkin emas. Sug'urta tovoni to'langandan so'ng ushbu sug'urta ob'ekti bo'yicha belgilangan sug'urta summasi to'langan sug'urta tovoni miqdoriga kamaytiriladi.

Bunda, Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) Sug'urtalovchidan to'langan sug'urta tovoni summasiga va sug'urta Polisi amal qilishining qolgan muddatiga mutanosib ravishda qo'shimcha sug'urta mukofotini to'lash to'g'risidagi xabarnomani olgan kundan bir hafta muddatda tegishli qo'shimcha to'lovni amalga oshirishi lozim.

7.9. Agar Polisga sug'urta summasi miqdori bo'yicha o'zgartirishlar kiritilgan bo'lsa, Sug'urtalovchi oxirgi o'zgarishlarni hisobga olgan holda zararni to'lab beradi.

7.10. Sug'urtalangan mol-mulk to'liq nobud bo'lganda topshirish-qabul qilish dalolatnomasi tuziladi va Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) mulkning qolgan qismlarini Sug'urtalovchi ixtiyoriga beradi.

7.11. Sug'urtalangan mol-mulkning o'g'irlanishi (yo'qolishi) yoki to'liq nobud bo'lishi, yohud uning qismlarini almashtirilishi bo'yicha sug'urta tovoni to'lab berilganda, Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi, Naf oluvchi) o'zining mulkka bo'lgan huquqlaridan Sug'urtalovchi foydasiga voz kechadi (Abandon). Bunda Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi, Naf oluvchi) mulk Sug'urtalovchining ixtiyoriga o'tganligini tasdiqlovchi barcha zaruriy hujjatlarni topshirishi lozim.

7.12. Sug'urta tovoni sug'urta hodisasi fakti Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi, Naf oluvchi) tomonidan taqdim etilgan hujjatlar bilan tasdiqlanib, ular asosida sug'urta tovoni qiymati aniqlangach, sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi qarori tasdiqlangan kundan e'tiboran 5 (besh) kun ichida to'lanadi.

7.13. Sug'urta tovoni to'lovi naqdsiz pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Sug'urta tovonini to'lash kuni bo'lib, Sug'urta tovonini to'lash uchun Sug'urtalovchi hisob raqamidan pul mablag'lari yechib olingan kun hisoblanadi.

7.14. Agar Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi, Naf oluvchi)ga o'g'irlangan sug'urtalangan mulk qaytarilsa, u Sug'urtalovchiga olgan sug'urta tovonini qaytarishga majbur. Bunda agar mulk shikastlangan holda topilsa, u holda Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi)ga yetkazilgan zarar to'lab beriladi.

7.15. Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi, Naf oluvchi) Sug'urtalovchiga to'langan sug'urta tovonini qaytarib berishdan bosh tortsa, u holda ushbu mulkka bo'lgan barcha huquqlar Sug'urtalovchiga o'tadi.

7.16. Sug'urta Shartnoma/Polisi amal qilish davrida Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) zudlik bilan, 72 soatdan kechikmagan holda Sug'urtalovchiga sug'urta xavfi darajasining o'zgarishiga bevosita ta'sir qiluvchi barcha o'zgarishlar haqida xabar berishi lozim. Bu kabi o'zgarishlarga quyidagilar kiradi:

7.16.1. sug'urtalangan mol-mulkni ijara berish;

7.16.2. sug'urtalangan ob'ektga bo'lgan egalik huquqlarining o'zgarishi.

7.17. Sug'urta xavfining ortishiga olib keluvchi holatlar haqida ma'lumotga ega bo'lgan Sug'urtalovchi sug'urta Shartnoma/Polisi shartlarini o'zgartirilishini yoki Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) tomonidan xavfning ortganligiga teng ravishda qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lanishini talab qilishga haqli.

7.18. Agar Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) sug'urta Shartnoma/Polisinining

yangi shartlariga rozi bo'lmasa yoki qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lashdan bosh tortsa, Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligidagi ko'zda tutilgan tartibda sug'urta Shartnomasining bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

7.19. Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) tomonidan Sug'urtalovchiga sug'urta xavfi darajasining ortishi to'g'risidagi axborotni xabar qilish bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligidagi ko'zda tutilgan tartibda sug'urta Shartnoma/Polisining bekor qilinishini va zararlar to'lab berilishini talab qilishga haqli.

7.20. Sug'urta Shartnoma/Polisi, agar Sug'urta qildiruvchi (Garovga qo'yuvchi) xavfi darajasining o'zgarishiga bevosita ta'sir qiluvchi holatlar o'zgarishi haqida o'z vaqtida xabar bermasa, Sug'urtalovchining talabi bilan bekor qilinishi mumkin. Agar sug'urta xavfi darajasining ortishini keltirib chiqaruvchi holatlar ortda qolgan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta Shartnoma/Polisining bekor qilinishini talab qilishga haqli emas.

7.21. Sug'urta xavfi darajasining ortganligi yoki yo'qligidan qat'iy nazar, Sug'urtalovchi sug'urta Shartnoma/Polisi amal qilish davrida sug'urtalangan ob'ektning ahvoli, ekspluatatsiya qilish sharoitlari va saqlanishini tekshirib turishga haqli.

## 8. SUBROGATSIYA

8.1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 957-moddasiga muvofiq sug'urtalangan mulkka mazkur Shartnomada nazarda tutilgan sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zarar Sug'urtalovchi to'liq yoki qisman sug'urta tovonini to'langan bo'lsa, to'langan summa doirasida zarar yetkazgan aybdor shaxsga da'vo qilish huquqi Sug'urtalovchiga o'tadi, bunda Qarz oluvchi yoki qonunchilikda belgilangan tartibda sug'urtalangan mulkka egalik huquqi bor shaxslar aybdor hisoblangan hollar bundan mustasno.

8.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 957-moddasi talablari doirasida Sug'urtalovchining o'ziga berilgan da'vo huquqini amalga oshirishi uchun Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi va (yoki) qarz oluvchi Sug'urtalovchiga barcha zarur bo'lgan ma'lumotlarni hujjatlar va dalillarni topshirishlari shart.

8.3. Agar Qarz oluvchi yoki mulkka egalik qiluvchi shaxs Sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan talab qilish huquqidani voz kechsa yoki ularning aybi tufayli ushbu huquqdan foydalanish imkonsiz bo'lganda, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'liq yoki tegishli qismi doirasida to'lashdan ozod qilinadi va to'langan sug'urta tovonini qaytarilishini talab qilishga haqli.

## 9. KORRUPSIYA VA JFODLTMVOQQTM GA QARSHI KURASHISH HAMDA BOSHQA SHARTLAR

9.1. Ushbu shartnoma bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini bajarayotganda, afillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari harakatlarga ta'sir qilishi yoki ushbu shaxslarning har qanday nomaqbwl imtiyozlar yoki boshqa imtiyozlarni olish uchun to'lovlarni to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita biron bir pul mablag'lari yoki qiymatlarni to'lashga yo'l qo'ymaydilar;

9.2. Ushbu shartnoma bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini bajarayotganda, afillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari amalda qonunchilikda pora berish-olish, shuningdek, amaldagi qonunchilik va xalqaro huquq talablarini buzadigan haraktlarni amalga oshirmaydilar, jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha harakatlar qilmaydi;

9.3. Ushbu shartnoma taraflarning har biri boshqa tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishni rad etadi, jumladan pul mablag'lari, sovg'alar, bepul ishlarni (xizmatlarni) bajarish va boshqalar taqiqilanadi. Shu bilan birga, xodimni ma'lum bir qaramlikka olib kelishi va buning bajarilishini ta'minlash, xodim rag'batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatni amalga oshirishi ta'qilanganadi;

9.4. Agar biron-bir tomon korrupsiyaga qarshi kurash shartlarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb bilsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma yoki og'zaki, shu jumladan, ishonch telefoni orqali xabardor qilish majburiyatini oladi;

9.5. Tomonlar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar tomonlar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korruptsianing oldini olish choralarini tan oladi va ularga riosa etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

9.6. O'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

9.7. sug'urta tovonini o'z vaqtida to'lamanlik uchun Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tgan summaning 0,1 foizi miqdorida, lekin ushbu Shartnoma bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan summaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi. Penyalarni to'lash Sug'urtalovchini sug'urta tovonini to'lash majburiyatidan ozod etmaydi.

9.8. Sug'urtalovchiga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni to'lash muddatlariga riosa etilmagan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Sug'urtalovchining talabiga ko'ra, kechiktirilgan har bir kun uchun 0,1 foiz miqdorida qarz summasiga penya to'laydi, lekin to'lanadigan summaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda to'laydi.

9.9. Agar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasliklari bartaraf etib bo'imas holatlar (fors-major) tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi. Fors-major holatlari ta'sir qilgan tomon boshqa tomonni ushbu holatlarning yuzaga kelishi va mumkin bo'lgan davomiyligi to'g'risida darhol xabardor qilishi shart. Bunday holda, Tomonlar belgilangan tartibda mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilgan va bajarilmagan qismlari bo'yicha yakuniy to'loymi amalga oshiradilar.

9.10. Tomonlar fors-major holatlari davrida ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgar emaslar.

9.11. Fors-major holatlariga quyidagilar kiradi: tabiiy hodisalar (zilzilalar, ko'chkilar, bo'ronlar, qurg'oqchilik va shartnomada ko'rsatilmagan boshqa tabiiy ofatlar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy harakatlar (harbiy harakatlar) natijasida yuzaga kelgan favqulodda, oldini olish mumkin bo'lmagan va kutilmagan holatlar; blokadalar, davlat tashkilotlari va davlatlar o'tasidagi cheklovchi va taqiqlovchi choralar, shuningdek hukumat qarorlari va boshqalar), agar bu holatlar Shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir qilgan bo'lsa).

9.12. Fors-major holatlari yuzaga kelganda, tomonlarning majburiyatlarini bajarish muddati fors-major holatlari davom etayotgan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

9.13. Ushbu Shartnoma shartlariga o'zgartirishlar kiritish tomonlarning kelishivi bilan amalga oshiriladi. Ushbu Shartnoma shartlarini o'zgartirish to'g'risidagi kelishuv yozma ravishda tuziladi.

9.14. Ushbu shartnoma shartlari o'zgargan taqdirda, majburiyatlar ushbu shartnomani o'zgartirish to'g'risidagi yozma shartnomada ko'rsatilgan kundan boshlab o'zgartirilgan deb hisoblanadi.

9.15. Ushbu shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxslarga topshirishga tomonlarning yozma roziligidiz yo'l qo'yilmaydi.

9.16. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan barcha holatlarda O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, "Sug'urta faoliyati to'g'risida", "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunlar va O'zbekiston Respublikasida amaldagi boshqa qonun hujjatlariga amal qiladilar.

9.17. Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi va Naf oluvchi maxfiylik uchun javobgardir va ushbu shartnoma, ilova va ushbu shartnoma bilan bog'liq boshqa hujjatlarining mazmunini tegishli tomonning yozma ruxsatisiz uchinchi tomonga oshkor qilmaydi.

9.18. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokara yo'lli bilan, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa sud tartibida hal qilinadi.

9.19. Shartnoma tomonlari, shuningdek har bir tomonning vakillari yoki xodimlari ushbu shartnomaga tegishli bo'lgan firma yoki maxfiy ma'lumotlarni har bir tomonning

oldindan yozma roziligidiz oshkor qilmaydi.

**10. SUG'URTALOVCHINING REKVIZITLARI:**

To'liq nomi: "SEMURG INSURANCE" AJ

Pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., S.Azimov ko'ch., 50

Elektron manzili: info@semurgins.uz

Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqida ma'lumotlar: Kompaniya O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 09.04.2020 yilda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan

Litsenziya to'g'risida ma'lumotlar:

O'zbekiston Respublikasi sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan 26.09.2023 yildagi 135840-sonli Litsenziya berilgan.